

# **O'zDSMI rektori Mustaqillik bayrami tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan institut talabalari bilan uchrashdi**

Mustaqillik – bu xalqimiz uchun eng ulug' ne'mat, buyuk orzularimiz va yuksak intilishlarimiz timsoli, xalqimizning milliy iftixori, kelajagimiz poydevori. Ushbu ulug' ayyomni munosib kutib olish va nishonlash har birimiz uchun sharaflı burchdir.

Joriy yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi mamlakatimiz bo'ylab katta tantanalar bilan nishonlanishi kutilmoqda. E'tiborli jihatni, mazkur shodiyonalarga tayyorgarlik jarayonlarida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari ham faol ishtirok etishmoqda.

8-avgust kuni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev «Yangi O'zbekiston» bog'ida bayram shodiyonalariga tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan oliygoh talabalari bilan uchrashdi.

Muloqot davomida ushbu jarayon ijodkor talabalarining kelgusi faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Qolaversa, talabalarining tayyorgarlik jarayonidagi faolliklari ham e'tirof etilib, ular institut rahbariyati tomonidan hamisha qo'llab-quvvatlanishini ta'kidlandi. Shuningdek, talaba-yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishildi.

Uchrashuv so'ngida rektor tomonidan ayyom ishtirokchilariga institut ramzi tushirilgan futbolkalar va bosh kiyimlarni o'z ichiga olgan esdalik sovg'alari taqdim etildi.





---

## **O'zbekiston Dönerlik va Madaniyat Institutida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayoni jadallik bilan davom etmoqda**

8-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Jumladan, o'quv binolari va auditoriyalarning holati, o'quv jihozlari yetarligi ko'zdan kechirildi.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida xodimlarning mas'uliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlanib, har bir vazifa o'z vaqtida va sifatli bajarilishi lozimligi aytib o'tildi. Bu borada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladigan ishlar ro'yxati tuzilib, mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, talabalar turar joyida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va registrar ofisini (talabalarga xizmat

ko'rsatish markazi) tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar ham o'r ganildi. Institut rektori mas'ullarga barcha ishlarni sifatli bajarish yuzasidan o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirib, muhim tavsiyalar berib o'tdi.



